

**OLIV O'QUV YURLARIDA TALABALARGA PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
Pedagogika Universiteti Psixologiya kafedrasi
o'qituvchisi **Saidova Nargiza Ismatulla qizi**
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi
Anorboyeva Malika Mansur qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqola bugungi kunda oliy o'quv yurtlari quyidagilar uchun sharoit yaratishga mo'ljallangan tizim bo'lib shaxsning mehnat, bilish va aloqa sub'ekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi yo'lini o'rganadi. Shu munosabat bilan, oliy ta'lim muassasalari psixologik-pedagogik xizmatlari darajasi oshdi, sub'ektiv rivojlantirish uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlash shaxsning salohiyati, shaxsiy o'z imkoniyatlarini yanada yetarli darajada anglash universitetda o'qish paytida yosh avlodni bilim tajribasni oshirish, o'zining psixologik imkoniyatlarini va turli qiyinchiliklarni yengishda o'zida kuch to'playdi. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida pedagogik-psixologik xizmat samaradorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari, xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan takliflar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: oliy o'quv yurti, aloqa sub'ekti, oliy ta'lim muassasalari, salohiyat, bilim daraja, tajriba, psixologik imkoniyatlar.

Annotation: This article describes the path of formation and development of a person as a subject of labor, knowledge, and communication, as a system designed to create conditions for higher education institutions today. In this regard, the level of psychological and pedagogical services in higher education institutions has increased. This provides students with the necessary conditions for personal development, helps them to unlock their potential, and to gain a deeper understanding of their own abilities. During their studies at the university, young people not only enhance their knowledge and experience but also strengthen their psychological capacity and find inner strength to overcome various difficulties.

Keywords: higher education institution, subject of communication, potential, level of knowledge, educational level, experience, psychological abilities.

Аннотация: Данная статья посвящена тому, что в настоящее время высшие учебные заведения представляют собой систему, предназначенную для создания условий, при которых происходит формирование и развитие личности как субъекта труда, познания и общения. В связи с этим повысился уровень психолого-педагогической службы вузов, обеспечение условий для субъективного

развития позволяет личности полнее осознавать свой потенциал и свои возможности. В период обучения в университете молодое поколение повышает уровень знаний и опыта, развивает свои психологические возможности и обретает внутреннюю силу для преодоления различных трудностей.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, субъект общения, учреждения высшего образования, потенциал, уровень знаний, опыт, психологические возможности.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligi va o'qish jarayonidagi muvaffaqiyati tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Oliy o'quv yurtlarida talabalarga pedagogik va psixologik xizmat samaradorligini oshirish yildan yilga ta'lim muassasalari to'g'risida qonunlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekistonda ham oliy o'quv yurtlarida talabalar o'rtasida o'qishdan charchash, motivatsiya pasayishi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Pedagogik va psixologik xizmatning asosiy maqsadi – talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, o'quv jarayonidagi to'siqlarni bartaraf etish hamda psixologik salomatlikni mustahkamlashdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda psixologik yordamga ehtiyoj eng yuqori bo'lgan davr 1-kurs va magistratura bosqichidir. Oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning hozirgi holati ko'pincha reaktiv xususiyatga ega; talaba o'zi murojaat qilmaguncha hech qanday chora ko'rilmaydi. Talabalarning o'qishdagi muvaffaqiyati bilan psixologik holati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud; emotsional barqarorlik yuqori bo'lgan talabalar o'rtacha bahosi past emotsional barqarorlikdagilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Pedagogik xodimlarning psixologik savodxonligi past bo'lsa, talabadagi stress, depressiya yoki o'qishdan charchash belgilarini o'z vaqtida sezmaydi va ko'pincha buni "dangasalik" yoki "mas'uliyatsizlik" deb baholaydi. Natijada talaba psixologik yordamdan mahrum qoladi. Bir qator oliy o'quv yurtlarida yaratilgan psixologik xizmatlar bugungi kunda mavjud emas shunga qararuyay, talabalarda bilim olish va yangi ta'lim jarayoniga moslashish ko'nikmalari shakilanib kelmoqda. Maqolaning asosiy maqsadi bugungi kunda universitetlarda talabalarni o'qitish jarayonida psixologik-pedagogik yordamning xususiyatlarini nazariy hamda amaliy asoslash va aniqlashdir. Universitetda qo'llab-quvvatlash tizimi maxsus psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishni o'z ichiga qamrab oladi bu esa muvaffaqiyatli individual rivojlanish va o'z-o'zini rivojlantirish uchun, birinchi navbatda bu ko'pincha moslashish to'sig'ini engib o'tolmaydigan birinchi kurs talabalari uchun judda yaxshi ko'mak xisoblanadi. Kasb-hunar ta'limini psixologik qo'llab-quvvatlash zarurati universitetlarlagi psixologik xizmati uzoq vaqtdan beri mahalliy psixologlar va o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilib kelingan. O'quv jarayonida kasbiy va psixologik yordamning mohiyatini quyidagicha aniqlash mumkin

psixofiziologiya va kasbiy tanlov sohasidagi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui katta maktab o'quvchilari va talabalarning psixologik diagnostikasi va psixologik-pedagogik tayyorgarligi, turli hildagi qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan shaxslarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash va chuqur o'rganish va moslashishdagi qiyinchiliklar, shuningdek ularning funksional ruhiy holati va ish qobiliyatini koneksiya va profilaktika ishlarini olib boorish va ta'lim faoliyati samaradorligi, shaxsiy kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirish fazilatlar, umuman mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishdir.

Psixologik xizmatlarning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ko'plab afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan. Psixologlar tomonidan taqdim etiladigan akademik yordam o'rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va hal qilishga yordam beradi, bu esa o'quv samaradorligini oshirishga va talabalarning faolligini oshirishga olib keladi. Bundan tashqari, psixologik xizmatlar ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shadi, o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlar, chidamlilik va aqliy farovonlikni rag'batlantiradi. Psixologik xizmatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglar va psixologlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birgalikda ishlash orqali ular o'quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlashlari, moslashtirilgan tadbirlarni ishlab chiqishlari va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan yordam muhitini yaratishlar mumkin. Biroq, cheklangan resurslar, stigma va kasbiy rivojlanish zarurati kabi muammolar maktablarda psixologik xizmatlarni samarali taqdim etishga to'sqinlik qilishi mumkin. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ko'rsatiladigan pedagogik va psixologik xizmatning samaradorligi bevosita talabaning akademik natijalari, shaxsiy rivojlanishi va umumiy psixologik farovonligiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, pedagogik va psixologik xizmatning samaradorligini oshirish oliy ta'lim sifatini tubdan yaxshilashning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir va bunga davlat, universitet rahbariyati hamda butun pedagogik jamoa birdek mas'uldir. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'qituvchilarning doimiy va uzluksiz psixologik ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'kidlab, xalq ta'limi vazirligi qoshidagi hududiy malaka oshirish institutlarida sinf rahbarlarini tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslarini tashkil etishni topshirgan. Bu choralar oliy o'quv yurtlarida ham qo'llanilishi mumkin bo'lib, talabalarga ko'rsatiladigan pedagogik-psixologik xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, chunki o'qituvchilar talabalardagi psixologik muammolarni erta aniqlash va ularga yordam berish qobiliyatini orttiradi. Uning nutqlarida ta'lim sifatini

oshirish, o'qituvchilar va talabalarning psixologik salomatligini mustahkamlash, malaka oshirish choralarini kengaytirish kabi yo'nalishlar alohida ta'kidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylarga bag'ishlagan nutqidan mazmunan olindi 2023.
2. Psixologik xizmat haqida Nizom. 1996
3. *Abdullayeva M. X., Xodjayeva N. I. Fan va texnologiya: O'quv qo'llanma - T.2024.*
4. *Zufarova M. E, Umumiy psixologiya: O'quv qo'llanma - T ,2010*